





XORAZM VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



**XORAZM VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI**
(2023- yil uchun)

Maktabgacha ta'lim bo'yicha press-reliz bu sohadagi rivojlanishlanish tendentsiyalarini kuzatib borish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu press-relizda, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini tavsiflovchi va bu sohaga boshqacha nuqtai nazardan qarashga imkonini beruvchi rasmiy statistik ma'lumotlar keltirilgan .

Press-relizning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim sohasidagi hozirgi holatni aks etirish, taqdim etilayotgan maktabgacha ta'lim sifatiga, barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi natijalar sarhisobi, shuningdek, farzandlarimizning ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsa-da, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda

Press-relizda maktabgacha ta'lim tizimining turli jihatlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ulardagi bolalar soni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedoglar va tarbiyachilar soni, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari kabi ma'lumotlar keltirilgan

Press-relizni tayyorlash uchun tegishli vazirliklarning statistik hisobotlari va idoraviy ma'lumotlari to'plandi. Olingan ma'lumotlar maktabgacha ta'lim sohasidagi mavjud vaziyatni tahlil qilish va obyektiv baholashga, ushbu soha samaradorligini baholashga va muammoli masalalarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu press-relizda taqdim etilgan ma'lumotlar, demograflar, iqtisodchilar, statistiklar, ommaviy axborot vositalari, ta'lim tashkilotlari, ota-onalar va ijtimoiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilish uchun foydali bo'ladi.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni*

(yil oxiriga, birlik)



Shahar va tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlari*


(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



*Izoh: 2023-yil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oid ma'lumotlar, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligidan integratsiya orqali olingan, barcha mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarga asoslangan.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rinlar soni

((yil oxiriga, ming birlikda) *




Shahar va tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rinlar soni

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming birlik)




*Izoh: 2023-yil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oid ma'lumotlar, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligidan integratsiya orqali olingan, barcha mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarga asoslangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni* (yil oxiriga, ming nafar)




Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni (yil oxiriga, ming nafar)




*Izoh: 2023-yil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oid ma'lumotlar, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligidan integratsiya orqali olingan, barcha mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarga asoslangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti (yil oxiriga, ming nafar)




Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning shahar va tumanlar bo'yicha gender taqsimoti (2023- yil oxiriga, ming nafar)




qiz bolalar Q O' o'g'il bolalar

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi *




Shahar va tumanlar kesimida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi (2023- yil oxiriga, foizda)




*Izoh: 2023-yil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oid ma'lumotlar, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligidan integratsiya orqali olingan, barcha mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarga asoslangan.

Gender bo'yicha aholi o'rtasida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi, foizda*



Gender bo'yicha shahar va tumanlar kesimida aholi o'rtasida 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi (2023- yil oxiriga, foizda)



*Izoh: 2023-yil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oid ma'lumotlar, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligidan integratsiya orqali olingan, barcha mulkchilik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarga asoslangan.

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini ulardagi o'rinlar soniga bo'lib 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar bilan ta'minlanganligi (1000 bolaga to'g'ri keladigan o'rinlar) – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonini 3-6 yoshdagi aholi soniga bo'lib 1000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 3-6 yoshdagi bolalarni mazkur yoshdagi aholi soniga nisbatini ifodalaydi.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlariga tuman, shahar, viloyat, respublika "Barkamol avlod" bolalar markazlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, sog'lomlashtirish oromgohlari va boshqa tashkilotlar kiradi.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



**Xorazm viloyati
Statistika boshqarmasi**



e-mail: xorazmstat@umail.uz



**Manzil: Urganch sh.,
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93**



[www. xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)



Tel.: +99862 224-65-21



facebook.com/xorazmstataxborot